



UNIVERSAL XALQARO ILMIY JURNAL

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljurnal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 4

Published: 30.04.2025
<https://universaljurnal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR
CROSSREF (OAK BAZA)
ZENODO
OPEN AIRE
EUROPUB
RESEARCHGATE (OAK BAZA)
SJIF

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Tohirjonova Xumora Azizbek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Pedagogika yo'nalishi 3-bosqich talabasi
Uzbekistan
adu@edu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishda interfaol metodlardan foydalanishning samarali usullari va ularga xos xususiyatlar tahlil etilgan. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari va ona tili fanining o'ziga xos tomonlari hisobga olingan holda, interfaol metodlarning qo'llanilishi, afzalliklari hamda amaliy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, ona tili, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, kreativ fikrlash, kommunikativ kompetensiya.

Аннотация: В статье анализируются эффективные методы и их особенности использования интерактивных методов обучения родному языку в начальных классах. В статье рассматриваются вопросы использования, преимуществ и практической значимости интерактивных методов с учетом возрастных особенностей учащихся младших классов и специфики предмета родной язык..

Ключевые слова: начальная школа, родной язык, интерактивные методы, педагогические технологии, творческое мышление, коммуникативная компетентность.

Abstract: This article analyzes effective methods and their specific features of using interactive methods in teaching the mother tongue in primary grades. The article highlights the application, advantages and practical significance of interactive methods, taking into account the age characteristics of primary school students and the specifics of the subject of the mother tongue..

Keywords: dramatic expression in dances, Khorezm folklore, Khorezm rhythms, intangible cultural heritage, dynamics, rhythms of movement, composition, Hafizs, Tupukqala, maqom, improvisation.

Language: Uzbek

Citation: Tohirjonova , K. (2025). CHARACTERISTICS OF USING INTERACTIVE METHODS IN TEACHING THE MOTHER LANGUAGE IN PRIMARY GRADES. Universal International Scientific Journal, 2(4), 257–262. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1734>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15344777>

Copyright © 2025 by author(s) and Scientific Research Publishing Inc. This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0). <http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarni faollashtirish, ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, mustaqil fikrlash va ijodiy salohiyatlarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limi o'quvchilarning kelgusidagi ta'lim olish jarayonining poydevori bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishda interfaol metodlarning qo'llanilishi o'quvchilarning nutq madaniyatini oshirish, savodxonligini ta'minlash va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ro'l o'ynaydi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishning o'ziga xos jihatlari.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish jarayoni quyidagi o'ziga xos jihatlarga ega:

- Yosh xususiyatlari: 6-10 yoshli bolalar diqqati beqaror, xotirasi ko'proq obrazli bo'lib, o'yin faoliyati orqali o'rganish samarali hisoblanadi.

- Nutq rivojlanishi: Bu davrda bolalarning lug'at boyligi tez o'sadi,

grammatik tuzilmalarni o'zlashtirish jarayoni faol kechadi.

- Savodxonlik asoslarini shakllantirish: O'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish boshlang'ich sinf ona tili o'qitishning asosiy vazifalaridan biridir.

- Ijtimoiylashuv: O'quvchilar guruhda ishlash, tengdoshlari bilan muloqot qilish orqali ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantiradi.

Bu xususiyatlarni hisobga olgan holda, interfaol metodlarni tanlash va qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo'llanilishiga bo'lgan qiziqish va e'tibor tobora ortib bormoqda. Bu holatning asosiy sabablaridan biri – an'anaviy ta'lim tizimida o'quvchi va talabalar, asosan, tayyor bilimlarni yod olishga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlar esa ularni mustaqil izlanishga, tahlil qilishga, o'z fikrlarini erkin ifoda etishga, hatto ilmiy xulosalar chiqarishga undaydi.

Interaktiv (lotincha “inter” – o‘zaro, “actio” – harakat) metodlar o‘qitish jarayonining faol va o‘zaro hamkorlikka asoslangan shaklidir. Bu metodlar asosida bilim olish jarayoni – faqat bilim beruvchi va qabul qiluvchi o‘rtasidagi bir tomonlama aloqa emas, balki ikki tomonlama muloqot, fikr almashish, bahs-munozaralar, ijodiy izlanish va hamkorlikka asoslanadi. O‘quvchi faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida ta‘lim jarayoniga jalb qilinadi. Bu esa o‘quvchilarni bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirish, ulardan mustaqil foydalanish, tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrou tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida shuni ko‘rish mumkinki, shaxsning o‘zlashtirgan bilimlarini saqlab qolish darajasi ularni qanday usulda egallaganiga bog‘liq. Ularning aniqlashicha:

- Agar inson axborotni o‘zi o‘qisa – 10 %;
- Faqat eshitganida – 20 %;
- Faqat ko‘rganida – 30 %;
- Ko‘rib, bir vaqtning o‘zida eshitganida – 50 %;
- O‘zi boshqalarga tushuntirganida – 80 %;
- Egallangan bilimlarni amalda qo‘llaganida esa – 90 % gacha axborotni yodda saqlab qolish imkoniyati mavjud ekan.

Bu esa o‘z navbatida interaktiv metodlarning ta‘lim samaradorligini keskin oshirishini ko‘rsatadi. An’anaviy yondashuvdan farqli o‘laroq, interfaol ta‘lim – “o‘qituvchi – o‘quvchi – o‘quvchilar guruhi” o‘rtasida yuzaga keladigan jonli muloqot, o‘zaro hamkorlik, erkin fikr almashish, birgalikda muammolarni tahlil qilish va yechim topish orqali tashkil etiladi. Ushbu

metodlar o‘quvchilar orasida o‘zaro ishonch, hurmat, ijobiy muhit, psixologik birlik, samarali fikr almashish va shaxsiy yondashuv asoslarini shakllantiradi. Aynan shunday ta‘lim muhiti o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, kreativ yondashuv, mas’uliyatli qaror qabul qilish va jamoadagi faollik kabi zamonaviy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

“Assessment” metodi haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tishni joiz drb topdik. Metodning maqsadi:

“Assessment” (baholash) metodi – ta‘lim oluvchilarning bilim darajasi, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va amaliy ko‘nikmalarini nazorat qilish hamda tahlil qilishga xizmat qiluvchi muhim vositadir. Ushbu metod yordamida o‘quvchilar va talabalar bilim olish faoliyatining turli jihatlarini (test sinovlari, amaliy topshiriqlar, muammoli vaziyatlarni hal qilish, qiyosiy tahlil, holat tahlili va simptomlarni aniqlash kabilar) asosida baholanadi. Bu esa ta‘lim jarayonini chuqur tahlil qilish va samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Metodni qo‘llash tartibi:

“Assessment” texnikasi darsning barcha bosqichlarida, ya’ni:

- Ma’ruza mashg‘ulotlarida – tinglovchilarning mavjud bilim darajasini aniqlash, yangi bilimlarni egallashga tayyorgarlik holatini baholash;

- Seminar va amaliy mashg‘ulotlarda – mavzularni chuqur o‘zlashtirish darajasi, mustaqil fikrlash va qo‘llay olish salohiyatini aniqlash;

- Individual baholashda – o‘z-o‘zini tekshirish, mustaqil bilim va ko‘nikmalarni baholash maqsadida qo‘llanilishi tavsiya etiladi.

Shuningdek, o‘qituvchi o‘zining pedagogik mahoratidan kelib chiqib, baholash shakllarini ijodiy tarzda boyitishi, topshiriqlar

mazmunini o'quv maqsadlariga mos ravishda kengaytirishi mumkin.

Baholash shakllari:

“Assessment” metodi doirasida quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- Yopiq va ochiq testlar;
- Klaster tuzish;
- Jadval asosida qiyosiy tahlil;
- “Holatni tahlil qil” (Case Study);
- “Tahlil – xulosa” mashqlari;
- “O‘z fikringni bildir” kabi yozma

topshiriqlar;

- Amaliy misollar orqali bilimni qo‘llash. Namuna (mavzu: “Ot so‘z turkumi”)

Baholash jadvali quyidagicha tuziladi: har bir topshiriq uchun alohida kataklar ajratiladi, ularning har biri 1 dan 5 ballgacha baholanishi yoki to‘g‘ri javob uchun belgilangan (masalan, 5 ball) ko‘rsatkich asosida hisoblanadi. Bu usul nafaqat o‘quvchining bilim darajasini aniqlash, balki ularning tahliliy fikrlash qobiliyatini ham baholashga xizmat qiladi.

Interfaol metodlarni qo‘llashning pedagogik-psixologik asoslari

Interfaol metodlar o‘quvchilarni faol bilim olishga, mustaqil fikrlashga va amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga undaydi. Boshlang‘ich sinflarda quyidagi pedagogik-psixologik tamoyillar asosida interfaol metodlarni qo‘llash maqsadga muvofiq:

• Faollik tamoyili: O‘quvchi bilim olish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishi.

• Hamkorlik tamoyili: O‘quvchilar bir-birlari bilan va o‘qituvchi bilan hamkorlikda ishlashi.

• Amaliyot bilan bog‘liqlik: Nazariy bilimlarni kundalik hayot bilan bog‘lab o‘rgatish. Qiziqarlilik: O‘yinlar, musobaqalar va qiziqarli topshiriqlar orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirish.

• Individuallashtirish: Har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish.

• Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarida qo‘llaniladigan samarali interfaol metodlar

1. Didaktik o‘yinlar

Didaktik o‘yinlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga mos bo‘lib, ular orqali grammatik qoidalarni o‘zlashtirish va nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Misol: "So‘z zanjiri" o‘yini. Bunda o‘quvchilar doira shaklida turib, har bir o‘quvchi avvalgi so‘zning oxirgi harfi bilan boshlanadigan yangi so‘z aytishi kerak. Bu o‘yin so‘z boyligini oshirish va tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga yordam beradi.

2. "Aqliy hujum" metodi

Bu metod o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi va ularni erkin fikr bildirishga undaydi.

Misol: "Bahor" mavzusida aqliy hujum o‘tkazilganda, o‘quvchilar bahor faslini tavsiflovchi so‘zlarni aytadilar: gullar, qushlar, yomg‘ir, ko‘katlar, quyosh, iliq havo va h.k. Bu orqali lug‘at boyligi oshadi va mavsumiy tushunchalar mustahkamlanadi.

3. "Kichik guruhlarda ishlash" metodi

O‘quvchilarni 3-4 kishilik guruhlariga bo‘lib, birgalikda topshiriqlarni bajarish orqali hamkorlik ruhini rivojlantirish mumkin.

Misol: Har bir guruhga bir hikoyaning boshlanishi beriladi va ular hikoyani davom ettirishi kerak. Bu vazifa o‘quvchilarning nutq ko‘nikmalarini va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.

4. "Ro‘lli o‘yinlar" metodi

O‘quvchilar turli ro‘llarni ijro etish orqali nutq madaniyatini va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Misol: "Do‘konda", "Shifoxonada", "Kutubxonada" kabi mavzularda ro‘lli o‘yinlar

tashkil etish mumkin. Bunda o'quvchilar muloqot jarayonida so'z boyliklarini qo'llashni o'rganadilar.

5. "Zinama-zina" metodi

Bu metod yangi mavzuni bosqichma-bosqich o'zlashtirishga yordam beradi.

Misol: Ot so'z turkumini o'rganishda birinchi bosqichda otning ma'nosini, ikkinchi bosqichda turlarini, uchinchi bosqichda grammatik belgilarini o'rganish mumkin.

Interfaol metodlarni qo'llashda o'qituvchining ro'li

Interfaol metodlarni samarali qo'llashda o'qituvchining ro'li quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Tashkilotchilik: O'qituvchi o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etishi va boshqarishi lozim.

Motivatsiya: O'quvchilarni faol ishtirok etishga undash, ularning qiziqishlarini ushlab turish.

Yo'naltiruvchilik: O'quvchilarning mustaqil izlanishlarini to'g'ri yo'naltirib turish.

Muhit yaratish: Ijodiy va erkin fikrlash uchun qulay psixologik muhit yaratish.

Baholash: O'quvchilarning faoliyatini adolatli baholash va ularni rag'batlantirish.

Interfaol metodlarning afzalliklari va qiyinchiliklari

Afzalliklari:

O'quvchilarning faolligini oshiradi.

Mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Kommunikativ ko'nikmalarni shakllantiradi.

Bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatadi.

Jamoa bilan ishlash mahoratini rivojlantiradi.

Qiyinchiliklari:

Ko'p vaqt talab qiladi.

Sinfdagi barcha o'quvchilarni nazorat qilish qiyin bo'lishi mumkin.

O'qituvchidan yuqori tayyorgarlik va mahorat talab etiladi.

Barcha mavzularni interfaol metodlar orqali o'rgatish imkoniyati cheklangan.

Xulosa o'rnida to'xtalib o'tadigan bo'lsak boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, ularning nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi va mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Interfaol metodlarning samaradorligi ularni o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ona tili fanining o'ziga xos jihatlari va zamonaviy ta'lim talablariga moslab qo'llashga bog'liq. O'qituvchi interfaol metodlarni qo'llashda pedagogik mahorat va ijodkorlik ko'rsatishi, darsning maqsadi va vazifalariga muvofiq eng samarali metodlarni tanlashi kerak. Shundagina boshlang'ich sinf o'quvchilarida ona tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish va motivatsiya yuqori darajada bo'ladi, bu esa ularning kelajakdagi bilim olish jarayoniga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedova M. "Ona tili ta'limida didaktik o'yinlar". Toshkent, 2020.
2. Bo'ronov B. "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi". Toshkent, 2021.
3. G'oziyev E. "O'quvchi psixologiyasi". Toshkent, 2019.

4. Hasanboyeva O. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish". Toshkent, 2021.
5. Matjonov S., G'ulomova X. "Ona tili o'qitishda interfaol usullar". Toshkent, 2018.
6. Qosimova K. "Ona tili o'qitish metodikasi". Toshkent, 2019.
7. Umarova M., Hakimova X. "Boshlang'ich sinf ona tili darslarida interfaol metodlar". Toshkent, 2020.
8. Yunusova D. "Zamonaviy pedagogik texnologiyalar". Toshkent, 2020.